

AXBOROT MAKONINIDA HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISH JAMIYAT POYDEVORI

Erkaboyev Sobitxon Akmalxon o'g'li

O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik

Akademyasi Islom huquqi (Yurisprudensiya)

Mutaxassisligi magistranti

Axborot makonida huquqiy madaniyatni shakllantirish va oshirish jarayonida diniy-axloqiy qadriyatlarning tutgan o'rnini aniqlash, ularning jamiyatdagi huquqiy ongni rivojlantirishdagi rolini ochib berish hamda ushbu mezonlar asosida axborot muhitida samarali huquqiy-ma'rifiy faoliyat yuritishning yo'nalishlarini belgilash. Ushbu tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi: Axborot makonining mazmuni va huquqiy madaniyatga ko'rsatadigan ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish. Huquqiy madaniyat tushunchasini diniy-axloqiy qadriyatlar kontekstida chuqurroq o'rganish. Islom dini va milliy axloqiy qadriyatlarning huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish. Axborot makonida tarqalayotgan salbiy kontentlarning huquqiy madaniyatga tahdidlari va ularni bartaraf etish mexanizmlarini tahlil qilish. Axborot vositalarida diniy-axloqiy yondashuvlar asosida huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir samarali usullarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Axborot xavfsizligi, huquqiy ong va axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash.

Tayanch so'z va tushunchalar: energiya intellect kommunikatsiya, protokollari, Texnologik serverlar, virtual Global Lyon,

THE FOUNDATION OF SOCIETY FOR IMPROVING LEGAL CULTURE IN THE INFORMATION SPACE

Erkaboyev Sobitxon Akmalxon o'g'li

International Academy of Islamic Studies of

Uzbekistan Master's degree student in

Islamic Law (Jurisprudence)

To determine the place of religious and moral values in the process of forming and improving legal culture in the information space, to reveal their role in the development of legal consciousness in society, and to determine the directions of effective legal and educational activities in the information environment based on these criteria. The objectives of this study were determined as follows: Theoretical analysis of the content of the information space and its impact on legal culture. A deeper study of the concept of legal culture in the context of religious and moral values. To reveal

the importance of Islamic religion and national moral values in the formation of legal consciousness and culture. Analysis of the threats to legal culture of negative content spreading in the information space and mechanisms for their elimination. Development of scientific foundations of effective methods for the formation of legal culture in the media based on religious and moral approaches. Identification of the relationship between information security, legal awareness and moral responsibility.

Key words and concepts: energy intellect communication, protocols, Technological servers, virtual Global Lyon,

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonida ham bunga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur Farmonning 3-bobida “Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish” deb belgilangan.

Aholining huquqiy madaniyatini oshirishda OAVning rolini oshirish borishga bo‘lgan e‘tibor o‘laroq 2020 yil 30 dekabr kuni qabul qilingan Hukumatning 678-son qarorida ham aholining huquqiy madaniyatni oshirishda OAVning rolini oshirish bo‘yicha alohida vazifalar belgilab qo‘yildi. Jumladan, qarori bilan 2020-2021 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha Chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Adliya vazirligi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari zimmasiga qator vazifalar yuklatildi. Xususan, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish bo‘yicha bepul o‘quv kurslari va seminarlar, ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun o‘z sohasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning maqsadi, mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha doimiy ravishda matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yildi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Zamonaviy dunyo tobora raqamlashtirilgan, axborotga asoslangan jamiyatga aylanib bormoqda. Inson hayotining deyarli barcha sohalarida axborot muhim rol o‘ynaydi. Qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlar, texnologik jarayonlar va hatto shaxsiy hayot ham axborotga asoslanadi. Shunday ekan, “axborot” tushunchasining mazmuni va mohiyatini chuqur tushunish hozirgi zamon odamining ajralmas ehtiyojlaridan biriga aylangan.

Axborotlashtirishning mazmuni va uning jamiyatdagi ahamiyati to'xtaladigan bo'lsak. Bu so'nggi yuz yillikdagi ilmiy-texnik taraqqiyotning eng muhim ifodalaridan biri bo'lib, u zamonaviy jamiyatda tub o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Har qanday taraqqiyot shakli kabi, axborotlashtirish ham ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomoni — texnik yo'nalish, ya'ni axborot texnikasi va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi; ikkinchi tomoni esa — ijtimoiy yo'nalish, ya'ni jamiyatda kechayotgan jarayonlarga, insonlarning turmush tarziga ta'siri orqali aks etadi.

Texnik jihatdan axborotlashtirish — bu kompyuterlar, tarmoqlar, sun'iy intellekt, dasturiy vositalar kabi texnologiyalar yordamida axborotni yig'ish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirishdir. U bugungi kunning barcha sohalariga ta'lim, sog'liqni saqlash, sanoat, boshqaruv, transport, moliya va boshqa tarmoqlarga keng kirib bormoqda.

Ijtimoiy jihatdan esa, axborotlashtirish inson hayoti, fikrlashi, mehnat faoliyati, muloqoti va hattoki qadriyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Axborotga asoslangan qarorlar, virtual muloqot, masofaviy ish va o'qish kabi yangi turmush tarzlari shakllanmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborot-kommunikatsiya makonining taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.”¹

Mazkur fikrlar axborotlashtirish nafaqat texnologik, balki geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga sabab bo'layotganini ko'rsatadi.

Axborot tushunchasi va uning mazmun mohiyati: Axborot — bu inson yoki tizim tomonidan qabul qilinib, anglab yetilgan va muayyan ma'no kasb etadigan ma'lumotdir. U atrofdagi hodisalar, voqealar, obyektlar yoki inson faoliyati haqida mazmunli, tushunarli va foydali ma'lumotlar yig'indisidir.

Ko'p hollarda “axborot” va “ma'lumot” tushunchalari bir-biriga chalkashib ketadi. Aslida ular o'rtasida farq mavjud:

Ma'lumot - Strukturaga ega bo'lmagan raqamlar, so'zlar. Va uning oydaliligi noma'lum. Xom holatda.

Axborot - Ma'noga ega, anglangan xabar. Qaror qabul qilishda yordam beradi. Tahlil qilingan, kontekstli.

Axborotga ulamolarning ta'riflari:

Imom al-G'azoliy (1058–1111) “Axborot – bu aqlni uyg'otuvchi va qalbni haqiqatga yetaklovchi xabar bo'lib, u ilm va amaldan oldin keladi”².

¹ O'zbekistob Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017yil 12 oktabrda MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi <http://press-service.uz/ru/lists/view/1132>

² Ihyo ulum ad-din 1-jild, “Ilm kitobi”.

Imom G‘azzoliy axborotni ilm olish va amaliy harakat qilishdagi birinchi manba deb hisoblaydi. G‘azzaliyning fikricha to‘g‘ri xabar to‘g‘ri ilmga sabab bo‘ladi. Demak, axborotni ilm olishda o‘rni jua katta hisoblandi.

Ibn Haldun (1332–1406) “Axborot – bu voqealar haqida yetib kelgan rivoyat bo‘lib, uning to‘g‘riligini rozilik, takrorlanish yoki dalil bilan isbotlash kerak.”³

Ibn Haldu axborotga tanqidiy yandashish zarurligini uqtiradi. Har qanday axborot shabha ostida bo‘lishi mumkin va uni taqsdiloqlovchisi ya’ni, dalil zarurligini aytadi. Agar uni ishonchliligini tasdiqlovchi dalil dalil bo‘lmasa u axborot qubul qilinmaydi. Bunday tashqari har bir axborotni sinchikovlik bilan tekshirilishi kerak.

Abu Nasr Forobiy (870–950)

“Axborot – bu ong orqali qabul qilinadigan ma’noli belgilar majmuasi bo‘lib, u ilmning poydevoridir.”⁴

Abu Nasr Farobiyni fikricha Axborotni faqat eshitish yoki ko‘rish emas, balki ongli ravishda tahlil qilish orqali anglash mumkunligini ta’kidlaydi. Farobiyni fikricha axborotni qabul qilishda ongni o‘rni juda katta hisoblanadi. Eshitish va ko‘rish qatoriga ong bilan tahlil qilishi ham qo‘shdi. Norbert Wiener (1894–1964) “Axborot – bu tartib (order) va noaniqlik (chaos) o‘rtasidagi farqni aniqlovchi birlikdir”⁵.

Norbert Wiener tomonidan berilgan “Axborot – bu tartib (order) va noaniqlik (chaos) o‘rtasidagi farqni aniqlovchi birlikdir” degan ta’rif axborotning nazariy va amaliy mohiyatini chuqur ifodalaydi. Unga ko‘ra, axborot – bu oddiygina xabar emas, balki mavjud noaniqlikni kamaytiruvchi va muayyan tizimda tartib va barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omildir. Bu qarash nafaqat texnik tizimlar, balki ijtimoiy va boshqaruv tizimlarida ham axborotning qanday muhim rol o‘ynashini ochib beradi.

Wienerning fikricha, axborot:

1. tizimlarda uzilishlar va chalkashliklarning oldini oladi,
2. harakat va boshqaruvga aniq yo‘nalish beradi,
3. qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

Shu bois, u axborotni energiya yoki moddadan kam bo‘lmagan qadriyat sifatida baholaydi. Uning nazariyasi bugungi kunda kibernetika, sun’iy intellekt, axborot tizimlari va boshqaruv fanlari uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilyapti.

Claude Shannon (1916–2001) “Axborot – bu xabar yuboruvchidan qabul qiluvchiga yetib boradigan belgi va kodlar ketma-ketligidir, u tanlovlar orasidan aniqlik keltiradi”⁶.

³ Ibn Haldun. “Muqaddima”, “Ibtido fasli”

⁴ Abu Nasr Farobiy, “Kitab al-Huruf”

⁵ Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine, 1948

⁶ A Mathematical Theory of Communicattion, 1948

Claude Shannonning “Axborot – bu xabar yuboruvchidan qabul qiluvchiga yetib boradigan belgi va kodlar ketma-ketligidir, u tanlovlar orasidan aniqlik keltiradi” degan ta’rifi zamonaviy axborot nazariyasining poydevorini tashkil etadi. Shannon axborotni matematik va muhandislik nuqtai nazaridan yondashgan bo‘lib, uni aloqa tizimlarida signal, kod va uzatish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Unga ko‘ra, axborot bu shunchaki mazmun emas, balki noaniqlikni kamaytiruvchi vosita hisoblanadi. Har bir uzatilgan xabar, belgi yoki signal — bir nechta ehtimolli holatlardan birini aniqlab, qabul qiluvchiga ma’lumlik olib keladi. Bu yondashuv aloqa tizimlarida axborot oqimini o‘lchash, kodlash va uzatish samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shannonning nazariyasi hozirgi raqamli kommunikatsiya, internet protokollari, mobil aloqa, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi va boshqa ko‘plab sohalar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ta’rif axborotning texnik mohiyatini ochib berib, uni miqdoriy tahlil qilish va boshqarish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni: “Axborot — bu insonlar, ob’ektlar, hodisalar, voqealar va jarayonlar to‘g‘risidagi og‘zaki, yozma, tovushli, vizual yoki boshqa shakldagi ma’lumot”⁷.

Axborot makoni va uning mazmun mohiyati:

Axborot makoni — bu axborotlar yaratiladigan, saqlanadigan, uzatiladigan va iste’mol qilinadigan virtual yoki fizik muhit bo‘lib, unda insonlar, tashkilotlar, davlatlar yoki tizimlar axborot almashadi va axborot asosida faoliyat yuritadi.

Axborot makoni real geografik makon kabi ko‘rinmas, lekin kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan raqamli maydon hisoblanadi.

Oddiyroq aytganda, Axborot makoni — bu insonlar internet, TV, radio, matbuot, ijtimoiy tarmoqlar, serverlar, sun’iy intellekt orqali ma’lumot olish, ulashish va ta’sir qilish joyidir.

Axborot makonining tarkibiy qismlari

1. Texnologik baza: internet, kompyuter tarmoqlari, serverlar, sun’iy yo‘ldoshlar, kompyuterlar, mobil qurilmalar.

2. Axborot oqimi: yangiliklar, kontent, rasmiy ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoq postlari, veb-saytlar.

3. Ishtirokchilar: shaxslar, tashkilotlar, hukumatlar, media, botlar, sun’iy intellekt tizimlari.

4. Axborot siyosati: davlatlar, platformalar yoki kompaniyalar tomonidan belgilangan nazorat va boshqaruv qoidalari.

Axborot makonining asosiy xususiyatlari:

⁷ O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, №560-II

1. Ko‘rinmaslik. U fizik jihatdan mavjud emas, lekin virtual tarzda mavjud
2. Global qamrov. Chegarasiz – butun dunyoni o‘z ichiga oladi
3. Tezkorlik. Axborot bir zumda tarqaladi
- 4 Ta’sirchanlik. Axborot orqali ijtimoiy fikr, siyosiy qaror, iqtisodiy harakatga ta’sir qilinadi
5. Xavfsizlik muammolari. Kiberhujumlar, feyk xabarlar, axborot urushlari xavfi mavjud.

Axborot makoni haqida olimning ta’riflar:

Manuel Castells (1942-y.t.) “Axborot makoni — bu insoniyat faoliyatining raqamli ko‘rinishi bo‘lib, u axborot tarmoqlari orqali bog‘langan va ijtimoiy ongga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan virtual maydondir”⁸.

Castells axborot makonini ijtimoiy tarmoq orqali shakllanadigan va jamiyat hayotiga ta’sir qiladigan mustaqil maydon sifatida tasvirlaydi. Bu makonda vaqt va makon chegaralari yo‘q ekanligini olg‘a surgan.

Alvin Toffler (1928–2016) “Axborot makoni — bu yangi kuch manbai bo‘lib, unda axborot ustidan nazorat qilish siyosiy va iqtisodiy ustunlikni belgilaydi”⁹

Tofflarning fikricha, axborot makoni — bu qudrat manbaidir. U bilim, nazorat va kommunikatsiya asosida shakllanadi va jamiyatda hukmronlik qiluvchi omillardan biriga aylanadi.

David Lyon “Axborot makoni — bu raqamli nazoratlar, kuzatuv texnologiyalari va ma’lumot tahlili orqali inson faoliyatini tahlil qilinadigan ijtimoiy maydondir”¹⁰

Lyon axborot makoniga ijtimoiy nazorat vositasi sifatida qaraydi. Unga ko‘ra, bu maydon orqali hukumatlar va korporatsiyalar insonlarni kuzatadi, tahlil qiladi va boshqaradi.

William Gibson “Kiberfazo (cyberspace) — bu kompyuter tarmoqlari orqali anglandigan, virtual voqelik sifatida idrok etiladigan axborot makonidir”¹¹

Garchi bu ilmiy emas, balki badiiy ta’rif bo‘lsa-da, Gibsonning “kiberfazo” atamasi hozirgi axborot makonining ilk g‘oyaviy tasvirlaridan biri hisoblanadi.

Richard A. Clarke “Axborot makoni — bu harbiylar, hukumat va xakerlar faoliyat olib boradigan yangi jang maydonidir”¹².

Clarke bu makonga xavfsizlik nuqtai nazaridan qaraydi. Unga ko‘ra, axborot makoni — zamonaviy “urush maydoni” bo‘lib, u yerda kiberhujumlar, axborot tahdidlari va gibril urushlar sodir bo‘ladi.

⁸ The Rise of the Network Society, 1996

⁹ Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990

¹⁰ Surveillance Society: Monitoring Everyday Life, 2001

¹¹ Neuromancer romani, 1984

¹² Cyber War: The Next Threat to National Security and What to Do About It, 2010

UNESCO “Axborot makoni — bu barcha axborot tizimlari, aloqa tarmoqlari, foydalanuvchilar va mazmunlar o‘zaro bog‘langan global raqamli muhitdir”¹³.

Bu ta’rifda axborot makoni jahon miqyosida qamrab olingan axborot oqimlari va infratuzilmalarning umumiy yig‘indisi sifatida ko‘riladi.

Axborot makoni — bu zamonaviy davrning o‘ziga xos muhitidir. Olimlarning ta’riflarida u ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tarmoq (Castells), siyosiy kuch va ustunlik manbai (Toffler), nazorat vositasi (Lyon), jang maydoni (Clarke), va global raqamli muhit (UNESCO) sifatida talqin qilinadi. Bu esa axborot makonini texnologik, ijtimoiy, siyosiy va strategik jihatdan keng qamrovli hodisa ekanini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017yil 12 oktabrda MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi <http://press-service.uz/ru/lists/view/1132>
Ihyo ulum ad-din 1-jild, “Ilm kitobi”

Ibn Haldun. “Muqaddima”, “Ibtido fasli”

Abu Nasr Farobiy, “Kitab al-Huruf”

Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine, 1948

A Mathematical Theory of Communicattion, 1948

O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabr, №560-II

The Rise of the Network Society, 1996

Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century, 1990

Surveillance Society: Monitoring Everyday Life, 2001

Neuromancer romani, 1984

Cyber War: The Next Threat to National Security and What to Do About It, 2010

UNESCO World Report: Towards Knowledge Societies, 2005

¹³ UNESCO World Report: Towards Knowledge Societies, 2005